

Uzbekistan Airways Technics 2022-yil yakunlari

2023 6 Yanvar

2022-yilda havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatuvchi Uzbekistan Airways aviakompaniyasining tarkibiy bo'linmalaridan biri "Uzbekistan Airways Technics" MCHJ aviatsiya sohasining rivojiga o'zining samarali hissasini qo'shdi. Uzbekistan Airways Technics (UAT) 2022-yil davomida quyidagi ishlarni amalga oshirib xorijiy va mahalliy aviakompaniyalarga quyidagi texnik xizmatlarni ko'rsatdi:

- "Aviastar-TU" (Rossiya Federatsiyasi) aviakompaniyasining Boeing 757-200 havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatdi;
- "Aero Nomad Airlines" (Qirg'iziston Respublikasi) aviakompaniyasi uchun Airbus A320-233 havo kemasiga texnik xizmat ko'rsatish;
- "Aero Nomad Airlines" aviakompaniyasining Airbus A320-232 havo kemasini to'liq bo'yash va shassisini almashtirish;
- "SCAT" (Qozog'iston Respublikasi) aviakompaniyasining Boeing 757-200 samolyotiga C-check doirasida texnik xizmat ko'rsatish;
- "SCAT" aviakompaniyasi uchun Boeing 737-MAX 8 havo kemasini ilk marta to'liq bo'yash;
- "Gryphon Air Cargo" (Gruziya) aviakompaniyasining Boeing 737-300 samolyotiga texnik xizmat ko'rsatish va to'liq bo'yash;
- "Aero Nomad Airlines" aviakompaniyasi uchun Airbus A320 havo kemasiga navbatdagi texnik xizmatni ko'rsatish va fyuzelyajini bo'yash;
- birinchi marta "ACM AIR" (Turkiya) aviakompaniyasining Gulfstream GIV biznes-jetini to'liq bo'yadi;
- "Silk Avia" (O'zbekiston Respublikasi) aviakompaniyasining ATR-72 havo kemalariga xizmat ko'rsatishning texnik jarayonini o'zlashtirdi;
- "Asia Sky Lines" (Tojikiston Respublikasi) aviakompaniyasi uchun Airbus A310-300 samolyotini bo'yash ishlari amalga oshirildi va katta hajmli texnik xizmat ko'rsatildi (Heavy Maintenance);
- yangi turdagi Boeing 747-200/300 havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatishni o'zlashtirishni boshladi.

Shuningdek, 2022-yilda Uzbekistan Airways Technics o'zining 98-yilligini nishonladi.

O'tgan yil davomida UAT Dubay (BAA), Moskva (Rossiya Federatsiyasi) va Dallas (AQSh) shaharlarida bo'lib o'tgan xalqaro ko'rgazma va konferensiyalarda ishtirok etib o'zining modernizatsiya qilingan xizmatlarini taqdim etdi. 2022-yil oxirida UAT muvaffaqiyatli tarzda EASA Part-145 va BCAA sertifikatlari tasdiqlanishiga erishdi.

Uzbekistan Airways Technics 2023-yilda texnik xizmat ko'rsatish tarmog'ini yanada kengaytirishni rejalashtirmoqda. Bu ishlar O'zbekiston Respublikasi aviatsiya sanoatini rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga javob beradigan darajada oshirish maqsadida amalga oshirilmoqda.